

VATANIMIZ MUSTAQILLIGI, XALQIMIZ TINCHLIGI VA OSOYISHTA HAYOTINING HUQUQIY KAFOLATI

Samandarova Shaxribonu Jaxongir qizi

JDPI matematika va informatika fakulteti 2 bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6292788>

Annotatsiya: ushbu maqolada Vatanimiz mustaqilligi, xalqimiz tinchligi va osoyishta hayotining huquqiy kafolati to'g'risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Bosh qomus, xalq, demokratik, suveren, muhokama, fuqoro, xalq suvereniteti, siyosiy hujjat.

O'ttiz yil – tarix uchun bir lahza, xolos. Shu qisqa davrda jonajon O'zbekistonimiz mustaqil va suveren davlat sifatida shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi, tom ma'noda ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ana shu mashaqqatli va sharaflı yo'lda erishgan barcha yutuqlarimizni, eng avvalo, Konstitutsiyamiz bilan bog'lashimiz, albatta, bejiz emas. Nega deganda, Asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo'limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi.

To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir. Bu yil Konstitutsiyamizning 30 yillik bayramini nishonlar ekanmiz, asosiy qonunimizni yaratishda unutilmas xizmat qilgan insonlar nomini chuqur hurmat bilan tilga olamiz.

Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov rahbarligida 1990 yil iyun oyida tuzilgan Komissiyaning ikki yillik mashaqqatli mehnati natijasida Konstitutsiyaning birinchi, ikkinchi va so'ngra uchinchi loyihalari ishlab chiqildi. Asosiy qonunimiz ikki marta – 1992 yil sentyabr va noyabr oylarida umumxalq muhokamasiga olib chiqildi. Mana shu o'tgan yillar davomida mamlakatimizdagi tub islohot va o'zgarishlarning barchasi Konstitutsiyamiz asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa uning haqiqatan ham xalqimiz manfaatlariga, davlatimizning strategik

maqsadlariga to'la javob beradigan, har tomonlama puxta ishlangan muhim siyosiy hujjat ekanidan dalolat beradi. Bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi, albatta.

Ayni paytda biz Asosiy qonunimiz talablarini to'liq amalga oshirish borasida hali oldimizda ulkan vazifalar turganini yaxshi tushunamiz. Ya'ni, xalqimiz hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, inson huquq va manfaatlarini amalda ta'minlash bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak. Bosh qomusimiz qabul qilinishidan maqsad va vazifalarga e'tibor beradigan bo'lsak, muqaddimasida mamlakatimiz fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilish, demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilinganligi qayd etilgan. Ya'ni Konstitutsiyamizning asosiy mohiyati insonga munosib hayot sharoitlari yaratish, uni baxtli qilishdan iborat.

Yana muhim hamda xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etiladigan xususiyat – bu Konstitutsiyaning “O'zbekiston xalqi” deb boshlanishidir. Bunday jummalarni boshqa biron bir qonunda uchratmaymiz. Buning o'zi ham xalq hokimiyatchiligining yorqin dalolati.

Konstitutsiyamizning yana bir eng muhim xususiyati – bu xalq suvereniteti e'tirof etilganligidadir. Asosiy qonunimizning 7-moddasida asosan xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekani muhrlangan. Asosiy qonunimizda “demokratiya” va “demokratik” so'zlari 7 marta, “xalq” so'zi 24 marta qo'llangan.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizda milliy qadryatlar bilan umuminsoniy xususiyatlar o'zaro uyg'unlashgan. Konstitutsiyamiz qabul qilingandan buyon o'tgan yillarning eng muhim yutug'i xalqimizning tanlagan yo'li to'g'riligi, mamlakatning buyuk kelajagiga ishonchi ortib borayotganida ko'rinadi. Mana shu muddat ichida unga bir necha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa, Konstitutsiyamizning huquqiy jihatdan yanada takomillashtirishi va mustahkam bo'lishini ta'minladi.

Hech shubhasiz, oradan yillar, asrlar o'tadi, lekin xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan Konstitutsiyamiz yangi-yangi avlodlar uchun hayot qomusi, davrning o'zi o'rta qo'yadigan dolzarb muammolarni yechish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Demak, Davlatning Konstitutsiyasi bor ekan fuqarolar qo'rqqanidan, tinch va farovon yashash huquqiga egadurlar. So'zimni Islom bobom fikrlari bilan yakun topdirmoqchiman: "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatni demokratik yo'ldan rivojlantirishning huquqiy kafolatidir."

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/09/01/nutq/>